

Funded by
the European Union

Supported by the
Federal Ministry
for Economic Cooperation
and Development



DW Akademie



Tanlov


Yevropa Ittifoqi Tabassum: genderga oid dezinformatsiyaga qarshi sub-grant dasturi (Noyabr 2024 – Oktyabr 2025)

DW Akademie O'zbekistondagi yoshlar bilan ishlaydigan tashkilotlarni Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan "Tabassum: O'zbekistonda gender tengligini targ'ib qilish va yosh ayollarni qo'llab-quvvatlash uchun media ko'nikmalari" loyihasining sub-grant (FSTP) dasturida loyihalar bilan ishtirok etishga taklif qiladi. Sub-grantlar internetda genderga oid dezinformatsiyani aniqlash va unga qarshi kurashish hamda onlayn ta'qib haqida xabardorlikni oshirish bo'yicha innovatsion tashabbuslarni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu sub-grantlar yoshlar bilan ishlaydigan tashkilotlarga genderga oid dezinformatsiya haqida media kontent yaratish hamda o'z bilim va tajribalarini tengdoshlari bilan bo'lishish imkonini beradi, shu tariqa jamiyatning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishlarini targ'ib qiladi.

Genderga oid dezinformatsiya O'zbekistonga ham ta'lluqli global tendentsiya bo'lib, dezinformatsiya va gender kesishmasiga qaratilgan. Bu internetda asossiz yoki noto'g'ri ma'lumotlar tarqalishi natijasida ayollarning nishonga olinishi va ta'qib qilinishi bilan bog'liq. Genderga oid dezinformatsiyani tarqatish usullari xilma-xildir, jumladan, gender stereotiplarini kuchaytiruvchi misoginistik izohlar, behayo, grafikli kontent tarqatish va zo'ravonlik tahdidlari yoki hatto kiber hujumlar kabi onlayn ta'qibni o'z ichiga oladi. Bu turdagи genderga asoslangan onlayn zo'ravonlik ko'pincha ayollarni raqamli ijtimoiy makonlaridan chetlanishga va har qanday faol jamoat ishtiroklaridan voz kechishga majbur qiladi. Aksariyat ayollar genderga oid dezinformatsiya mexanizmlari haqida bilishmaydi va ushbu yangi tahidlarni aniqlash va unga qarshi kurashish qobiliyatiga ham ega emaslar.

Nimalarni taklif qilamiz?

- 2024-yil oktabr oxirida Toshkent viloyatidagi oromgohda 4 kunlik tadbir**, unda media savodxonligi, genderga oid dezinformatsiya, kontent yaratish va trenerlarni tayyorlash bo'yicha dastlabki seminarlar o'tkaziladi. Tadbir xarajatlarining barchasi DW Akademie tomonidan qoplanadi.
- FSTP dasturi doirasida mentorlik** (murabbiylit) sizning loyihangizni amalga oshirishda, xususan, media mahsulotlarini tayyorlash va nashr qilish hamda seminarlar o'tkazishda yordam beradi.



Funded by
the European Union

Supported by the
Federal Ministry
for Economic Cooperation
and Development



DW Akademie



3. **4000 yevrogacha sub-grant** (Tanlov varaqasi topshirilgan kun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan evroning so'mga nisbatan belgilangan qiymati bo'yicha beriladi).

Kimlar qatnashishi mumkin?


O'zbekistonda yoshlari bilan ishlaydigan notijorat va nodavlat tashkilotlar

- rasmiy (masalan, NNT yoki jamoat fondi kabi ro'yxatdan o'tgan) yoki o'zini o'zi boshqaruvchi subyekt sifatida tashkil etilgan va faoliyat yurituvchi tashkilot. Yoshlari bilan ishlaydigan tashkilotlarining mintaqaviy bo'lmlari alohida yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lsalar, ular ham qatnashishlari mumkin.
- rasmiy ro'yxatdan o'tgan va bank hisob raqamiga va muhrga ega bo'lgan, moliyaviy javobgarlikni o'z zimmasiga olish imkoniyatiga ega bo'lgan universitetlar/institutlar va boshqa ta'lim muassasalari nomidan ariza topshiruvchi talabalar jamoalari/guruahlari/klublari. Eslatma: Biz talabalar jamoalari/guruahlari/klublaridan to'g'ridan-to'g'ri loyihalar qabul qila olmaymiz, chunki bizga moliyaviy boshqaruv va bank hisob raqamlariga nisbatan kafolatlar kerak. Universitetlar/institutlar va boshqa ta'lim muassasalari davlat yoki xususiy yuridik maqomga bo'lishi mumkin.
- hukumat va boshqa davlat tashkilotlari yoki siyosiy partiyalarga a'zo bo'lmagan tashkilotlar. Davlat grantlarini oluvchisi bo'lishi mumkin, lekin davlat muassasalari bilan bevosita va to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lishi tanlovdan chetlatishga asos bo'ladi.
- kamida 18-25 yoshdagi 3ta a'zodan iborat yoki 18-25 yoshdagi yoshlari bilan ishlaydigan tashkilot.
- onlayn dezinformatsiya, raqamli savodxonlik va kontent yaratish bo'yicha birlamchi bilimlarga ega bo'lgan tashkilot.
- moliyaviy va yozma hisobot berish tajribasiga ega hamda sub-grantni boshqarish uchun moliyaviy va boshqaruv salohiyatiga ega bo'lgan tashkilot.
- faol jamoat ishtiroki va yetakchilik ko'nigmalarini namoyish etuvchi tashkilot.

Arizalar quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

- mavzuning maqsadli auditoriya uchun dolzarbligi.
- motivatsiya.
- raqamli ko'nigmalar, media va axborot savodxonligi hamda inson huquqlariga bo'lgan qiziqish.
- olingan bilim va tajribalarni tarqatish (hamkasb/tengdoshlar bilan bo'lishish).
- mintaqaviy faoliyat (poytaxtdan tashqarida).

tanlov va FSTP talablariga (vaqt jadvali, mentorllikda ishtirok etish, grant boshqaruvi va ijrosiga ma'suliyat bilan yondashuv) javob berish.
- genderga oid dezinformatsiyaga amaliy, innovatsion va barqaror yondashuv.
- loyiha natijalarining qamrovi.
- mablag'larni maqsadli ishlatish.



Funded by
the European Union

Supported by the
Federal Ministry
for Economic Cooperation
and Development



Talablar:

- Rejelashtirilgan 4 kunlik oromgoh va mentorlik tadbirlarida ishtirok etish.
- 10ta media mahsulotini yaratish va ijtimoiy media kanallarda yoki tanlagan tegishli platformalarda 2025-yil oktabr oxirigacha nashr qilish - bu qisqa postlar, reels, video, podcastlar, maqolalar va boshqalar bo'lishi mumkin - va tayyor mahsulotlar joylashtirilgan platformalarga tegishli havolalarni taqdim etish.
- Media va axborot savodxonligi (MIL) va genderga oid dezinformatsiya bo'yicha bilim va ko'nikmalarni yanada oshirish uchun tengdoshlar/maqsadli auditoriyadagi yoshlар uchun kamida 3ta seminar o'tkazish. Seminarlar 2025-yil oktabr oxirigacha onlayn yoki offlayn o'tkazilishi mumkin. Har bir seminar kamida 15 ishtirokchini jalg qilishi lozim.
- Yakuniy kontent o'zbek yoki rus tilida bo'lishi kerak.
- Ish jarayoni va natijalar, jumladan, qatnashchilar ma'lumotlari va yaratilgan media mahsulotlari/kontent va seminarlarni umumlashtiruvchi hisobotlarni taqdim etish.
- Loyihani amalga oshirish davrida to'lov qog'ozlari, hisob-fakturalar kabi xarajatlarning batafsil dalillarini biriktirgan holda moliyaviy hisobot taqdim etish.
- Yakuniy kontent mahsuloti va ish jarayoni bosqichlari Tabassum loyihasi targ'ibotida foydalaniladi va ushbu loyiha doirasida Yevropa Ittifoqining targ'ibot talablariga mosligi e'tiborga olinadi.
- EU Tabassum loyihasini qo'llab-quvvatlash uchun intervyu yoki boshqa turdagи media ko'rinishlarga tayyor bo'lish.
- Tayyorlangan media mahsulot/kontent O'zbekiston qonunchiligiga va Yevropa Inson Huquqlari Konvensiyasi qiymatlariga muvofiq bo'lishi kerak. Urush, jismoniy, psixologik yoki jinsiyo zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi, axloqiy yoki diniy tuyg'ularni haqorat qilish orqali inson qadr-qimmatini kansituvchi va inson huquqlariga putur yetqazuvchi g'ayriinsoniy mahsulotlar qo'llab-quvvatlanmaydi.


Iltimos, loyihani 15-avgust Toshkent vaqt bilan 24:00 gacha bu yerda topshiring. Belgilangan muddatdan keyin yuborilgan loyihalar ko'rib chiqilmaydi. Qisqa ro'yxatga kiritilgan qatnashchilarga Sentyabr o'rtalarida hakamlar hay'ati qarori haqida xabar beriladi. Tanlangan loyihalar keyingi bosqichda hakamlar hay'atiga onlayn tadbirda taqdim qilinadi. Tanlovning yakuniy natijalari Sentyabr oxirida e'lon qilinib, g'oliblar 4 kunlik oromgohga taklif qilinadi va ular bilan shartnoma imzolanadi.

Tanlov g'oliblari Tabassum loyihasi qoidalariga muvofiq DW Akademiening mahalliy hamkor - Zamonaviy jurnalistikani rivojlantirish markazi bilan shartnoma imzolaydi.

Taqdim etilgan loyihalarning barcha mualliflik huquqlari huquq egalariga tegishlidir. FSTP dasturi doirasida yaratilgan barcha kontent Tabassum loyihasi doirasida amalga oshirilganligi haqidagi ma'lumotni o'z ichiga olishi kerak.

Tanlov jarayonida yetarlichi loyihalar qabul qilinmasa yoki tanlov mezonlariga to'g'ri keladigan loyihalar topilmasa, unda DW Akademie si tanlov jadvalini o'zgartirishi va muddatni uzaytirishi mumkin.

Tabassum Smile



Funded by
the European Union

Supported by the
Federal Ministry
for Economic Cooperation
and Development



DW Akademie



Qo'shimcha savollaringiz bo'lsa, bizga dw-akademie.uzbekistan@dw.com (Ingliz/Rus) elektron pochta orqali "EU Tabassum FSTP dasturi bo'yicha savol" mavzusi bilan yoki mahalliy koordinatormiz Sanjarbek Allayarovga (Rus/O'zbek) sallayarov@gmail.com manzili orqali +998 90 908 1797 telefon raqami orqali murojaat qilishingiz mumkin.

Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan va Germaniya Federal iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish vazirligi (BMZ) tomonidan qo'llab-quvvatlangan "Tabassum: O'zbekistonda gender tengligini targ'ib qilish va yosh ayollarni qo'llab-quvvatlash uchun media ko'nikmalari" loyihasi Zamonaliv jurnalistikani rivojlantirish markazi (MJDC) hamkorligida DW Akademie tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu loyiha media va raqamli savodxonlikni, shuningdek, ayollar va yoshlar bilan ishlaydigan fuqarolik jamiyatni tashkilotlarning gender tengligi, ayollarni qo'llab-quvvatlash va yoshlar orasidagi hamkorlikni targ'ib qilishda kommunikativ imkoniyatlarni kuchaytirishni maqsad qilgan. Loyihaning oxirida maqsadli guruhlar, jurnalistlar, blogerlar, ayollar va yoshlar bilan ishlaydigan fuqarolik jamiyatni tashkilotlari, gender xabardorlik, genderga oid dezinformatsiyasi va media kampaniyalari bo'yicha malakalarini oshirishlari va amaliy ko'nikmalarini ko'paytirishlari kutilmoqda.

DW Akademie - Deutsche Welle'ning xalqaro mediani rivojlantirish, jurnalistika sohasida o'qitish va bilimlarni tarqatish markazi hisoblanadi. Bizning loyihalarimiz so'z erkinligi va axborotdan erkin foydalanish huquqini himoya qilishni qo'llab quvvatlaydi.